

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**MATEMATIKA SOHASIDAGI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA ILMIY-
TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg‘or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqotlarning o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining (keyingi o‘rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag‘lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalar xarid qilindi;

to‘rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisiligidagi Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar matematika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Jumladan:

birinchidan, matematika ta’limotining ta’lim olish bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik to‘liq ta’minlanmagan;

ikkinchidan, umumta’lim maktablarida matematika darsliklari o‘quvchilarning yoshiga nisbatan fanni o‘zlashtirishni qiyinlashtiruvchi murakkab masalalardan iborat va boshqa fanlarda o‘tiladigan mavzular bilan uyg‘unlashtirilmagan;

uchinchidan, matematikaga qiziquvchan, xalqaro olimpiadalar g‘oliblari bo‘lgan aksariyat iqtidorli yoshlarimiz hududlardan bo‘lishiga qaramasdan ularning kelgusi rivojlanishi uchun oliy ta’lim va ilm-fan sohasida zarur shart-sharoit yaratib berilmagan;

to‘rtinchidan, matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotning amaliyot va ishlab chiqarish bilan bog‘liqligi zaifligicha saqlanib qolmoqda;

beshinchidan, sohadagi olimlarning xorijiy ilmiy va ta’lim muassasalari bilan aloqalari milliy matematikani jahon miqyosiga olib chiqish, xalqaro hamjamiyatda nufuzini oshirish uchun yetarli emas.

Ta’limning barcha bosqichlarida matematika fanini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid [davlat dasturida](#) belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar matematika sohasidagi ta’lim sifati oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirish hamda yangi maktablarni tashkil etish;

matematika fani bo'yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo'yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o'rinlarni egallashini ta'minlash;

ta'lim berishning onlayn platformasini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, masofadan o'qitish tizimi samaradorligini oshirish, baholash tizimining shaffofligini ta'minlash mexanizmlarini joriy qilish;

Matematika fanini bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish, oliy ta'limning tegishli yo'nalishlari va mutaxassisliklarida matematika fani bo'yicha mashg'ulotlarni ko'paytirish hamda ta'lim berish sifatini oshirish;

matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, amaliy matematikani rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni modellashtirish asosida matematik yechimlarni ishlab chiqish;

matematika sohasida ta'lim olayotgan va ilmiy-tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, chet eldagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

mamlakatimizning ilmiy va ta'lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich jahonning matematika fani bo'yicha yetakchi ilmiy markazlari darajasiga yetkazish.

2. 2020 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Fanlar akademiyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligining har bir tumanda (shaharda) matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni (keyingi o'rinlarda — Ixtisoslashtirilgan maktablar) bosqichma-bosqich tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 2020-yil 1-noyabrga qadar Ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish bo'yicha manzilli dasturni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda:

Ixtisoslashtirilgan maktablarning nizomlarini, mazkur maktablarda matematika fani o'qituvchilarini tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-sentabrdan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Fanlar akademiyasi va "O'zstandart" agentligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar Matematika fanini

bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini (keyingi o'rinlarda — Milliy sertifikatlash tizimi) joriy qilsin.

8. Milliy sertifikatlash tizimi doirasida quyidagilar belgilansin:

Oldingi tahrirga qarang.

matematikani bilish darajasini baholash va bu to'g'risida milliy malaka sertifikatini (keyingi o'rinlarda — milliy sertifikat) berish o'rnatilgan tartibda Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladi;

(8-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

matematikani bilish darajasini baholash tabaqalashtirilgan holda amalga oshiriladi;

imtiyoz beriladigan darajadagi milliy sertifikatga ega abituriyent davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishda matematika fanidan test sinovi topshirishdan ozod etiladi va unga matematika fani uchun belgilangan maksimal ball beriladi;

2021-yil 1-sentabrdan boshlab Ixtisoslashtirilgan maktablarning matematika fani bo'yicha o'qituvchilari tegishli darajadagi milliy sertifikatga ega bo'lishlari majburiy hisoblanadi;

Milliy sertifikatlash tizimi uchun test topshiriqlari bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borishda ekspert sifatida Institut ilmiy xodimlari jalb qilinadi;

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-sentabrdan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son)

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ilmiy faoliyatga doir davlat dasturiga ajratilgan mablag'lar hisobidan 2021-yil 1-yanvarga qadar Milliy sertifikatlash tizimining onlayn platformasini ishlab chiqsin va joriy etsin.

10. Institut tarkibida 5 ta shtat birligidan iborat Matematika ta'limi bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni muvofiqlashtirish laboratoriyasi tashkil etilsin.

Belgilansinki, "Matematika ta'limi bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni muvofiqlashtirish" laboratoriyasi faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Institutni saqlash uchun ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

11. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq davlat ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda majburiy tartibda Institutning ekspert xulosasi olinadi.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2020-yil 1-sentabrga qadar:

matematika bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalarida matematika fani uchun ajratilgan soatlar hajmini oshirish;

kadrlar iste'molchilari mutaxassislarini jalb etgan holda bitiruvchilarda sohaga oid matematika bo'yicha amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlarini amalga oshirish;

kadrlarni integrativ fanlararo tayyorlash maqsadida matematika ta'lim yo'nalishlarida qo'shimcha fanlarni (biologiya, geologiya, kimyo, fizika va boshqalar) joriy qilish choralari ko'rsin.

13. Institut huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Matematika fani va ta'limini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Jamg'arma faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Institut tuzilmasida Jamg'arma mablag'lari hisobidan saqlanadigan 2 shtat birligidan iborat Matematika fani va ta'limini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini boshqarish guruhi tashkil etilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Fanlar akademiyasining matematika sohasidagi fundamental va amaliy ilmiy izlanishlari natijalariga ko'ra

amaliyotdagi muayyan muammoning yechimini taklif etgan olimlarni mukofotlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofotini (keyingi o'rinlarda — Mukofot) ta'sis etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

15. Belgilansinki:

Mukofot bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar taqdirlanadi;

Mukofot ikki yilda bir marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashining taklifiga ko'ra uchta yo'nalish (fundamental sohadagi tadqiqot, yoshlar o'rtasidagi tadqiqot va iqtisodiyotning real sektoridagi muammoning yechimini ta'minlagan tadqiqot) bo'yicha beriladi;

har bir yo'nalish bo'yicha Mukofot sovrindorlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 50 ming AQSh dollari ekvivalentidagi pul mukofoti beriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashida Mukofot nomzodlarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tavsiyanomasiga ko'ra amalga oshiriladi;

taqdirlash uchun nomzodlar bo'yicha takliflar O'zbekiston matematika jamiyati tomonidan o'tkaziladigan doimiy kuzatuvlar asosida shakllantiriladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etiladi;

Mukofot sovrindoriga pul mukofotini to'lash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2021-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

(15-bandning beshinchi — yettinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

16. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Moliya vazirligi va Fanlar akademiyasi bilan birgalikda ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti bilan taqdirlash tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

17. Qoraqalpog'iston Respublikasida, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovski nomidagi Matematika institutining hududiy bo'linmalari (keyingi o'rinlarda — hududiy bo'linmalar) tashkil etilsin hamda ularning namunaviy shtat jadvali 2-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

18. Belgilab qo'yilsinki:

hududiy bo'linmalar xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan Institutni saqlash uchun ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi;

hududiy bo'linmalar joylashtirilgan bino va inshootlarni saqlash hamda kommunal to'lovlar bo'yicha xarajatlarni qoplash tegishli oliy ta'lim muassasasining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

hududiy bo'linmalar yuridik shaxs hisoblanmaydi va Institutning tarkibidagi ilmiy bo'linmalari sifatida faoliyat yuritadi;

har bir hududiy bo'linma tarkibida bir shtat birligidan iborat 2021-yilda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlanadigan va 2022-yildan boshlab to'liq xo'jalik hisobiga o'tkaziladigan O'quv markazlari faoliyat yuritadi;

hududiy bo'linmalarining rahbarlari Institut direktori tomonidan tegishli oliy ta'lim muassasasining rektori bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

hududiy bo'linmalarining ilmiy-tadqiqot ishlari Institutning ish rejasi va ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida amalga oshiriladi.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasining

Institut huzurida qonun hujjatlariga muvofiq holda matematika ixtisosliklari bo'yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashni (keyingi o'rinlarda — ilmiy kengash) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

20. Institut rahbariyati ilmiy kengash a'zolarining yarmidan ko'pi Institutda faoliyat yuritishini, shu jumladan o'rindoshlik asosida jalb etilishini hamda izlanuvchilarning dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik va maslahatchilik qilishini ta'minlasin.

21. Belgilab qo'yilsinki:

izlanuvchining dissertatsiyalarini ilmiy seminar va ilmiy kengash yig'ilishlarida ko'rib chiqish hamda muhokama qilish sanasi ilmiy kengash tomonidan belgilanadi;

izlanuvchiga tegishli ilmiy darajani berish to'g'risidagi qaror ilmiy kengash tomonidan qabul qilinadi;

ilmiy kengash izlanuvchiga dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan kunning o'zida davlat namunasidagi ilmiy daraja bo'yicha diplomni berish vakolatiga ega;

ilmiy kengashning tarkibi Institut kengashi tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi bilan kelishilgan holda Institut kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

22. Toshkent shahar hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Institut uchun Toshkent shahar Olmazor tumani Universitet ko'chasida yangi qurilgan binoni Institutga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz o'tkazib berilishini ta'minlasin.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-son [qaroriga 3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish kiritilsin.

24. "O'zbekkino" Milliy agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Moliya vazirligi va Fanlar akademiyasi matematika sohasidagi taniqli olimlar haqida turkum badiiy va hujjatli filmlarni suratga olish choralari ko'rsin.

25. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 7-may,
PQ-4708-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

2020 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning

MAQSADLI DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Maktabgacha ta'lim muassasalarida elementar matematika asoslarini o'qitish sifatini oshirish				
Bunda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limning elementar matematika asoslarini o'qitish, tarbiyalanuvchilarda ilk matematik tasavvurni takllantirish bo'yicha tizimli va				

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
keng qamrovli ishlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri A.V. Shin shaxsan mas'ul etib hisoblanadi.				
1.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ularning yoshiga muvofiq ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish.	1. Bolalarning elementar matematika to'g'risidagi tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish. 2. O'rganilgan xorijiy tajriba asosida elementar matematika bo'yicha maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari va o'quv-metodik qo'llanmasini ishlab chiqish hamda ularni o'zaro muvofiqlashtirish. 3. O'quv-metodik majmua asosida bolalarning elementar matematika tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tayanch maktabgacha ta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida o'tkazish. 4. Tajriba sinov natijalari bo'yicha "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida elementar matematika bo'yicha o'quv dasturini va o'quv-metodik qo'llanma ishlab chiqish. 5. Elementar matematika bo'yicha zamonaviy o'quv didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish. 6. Elementar matematika bo'yicha o'quv dasturi va o'quv-metodik qo'llanma	2021-yil 1-oktabr 2022-yil 1-iyul 2022-yil 1-sentabr 2023-yil 1-may 2023-yil 1-avgust 2023-yil 1-sentabr 2023-yil 1-dekabr 2023-yil sentyabrdan boshlab	Maktabgacha ta'lim vazirligi (<i>Shin</i>), Xalq ta'limi vazirligi (<i>Shermatov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		asosida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil qilish. 7. "Ilk qadam" va "Ilm yo'li" o'quv dasturlari doirasida elementar matematika bo'yicha onlayn-mashg'ulotlar bazasini yaratish va ommalashtirish. 8. Maktabgacha ta'lim tizimidagi malaka oshirish kurslarida mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilarga bolalarning elementar matematika bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish.		
II. Umumta'lim muassasalarida matematika fanini o'qitish sifatini oshirish				
Bunda, umumta'lim muassasalarida matematika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklarni sodda va tushunarli tilda tayyorlash, hududlarda matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini samarali tashkil etish va Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti bilan yaqindan hamkorlikda yoshlarni xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov shaxsan mas'ul hisoblanadi.				
2.	Matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarning (keyingi o'rinlarda — Ixtisoslashtirilgan maktablar) moddiy-texnik bazasini yaxshilash.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o'quv-metodik ta'minotining amaldagi holatini to'liq xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijasi bo'yicha: Ixtisoslashtirilgan maktablarning bino-inshootlarini ta'mirlash, ularga qo'shimcha bino qurish; Ixtisoslashtirilgan maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, kompyuter sinfi, masofaviy tarzda onlayn	2020-yil 1-sentabr 2020-yil 1-noyabr	Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (Qo'chqorov), Moliya vazirligi (Ishmetov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sodiqov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Qudratov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		dars o'tish asbob-uskunlari bilan jihozlash, o'quv-metodik, shu jumladan elektron darslik va multimedia materiallari bilan ta'minlash; Ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik va o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash bo'yicha hisob-kitob qilish va moliyalashtirish manbalari yuzasidan takliflar tayyorlash. 3. Tayyorlangan takliflarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 4. Tahlil natijasida zarur deb hisoblangan qurilish-ta'mirlash ishlarini kelgusi yillar uchun shakllantiriladigan investitsiya dasturlariga kiritish chorasini ko'rish. 5. "Zamonaviy maktab" dasturi talablari asosida Ixtisoslashtirilgan maktablar zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash. 6. Ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik va o'quv-metodik jihatdan ta'minlash ishlariga soha bo'yicha ilg'or xorijiy moliya institutlarining grant mablag'larini jalb qilish choralarini ko'rish.	2020-yil 1-dekabr 2021-yil yanvar — avgust 2021-2022-yillar davomida Doimiy	
4.	Matematika fanidan dars berayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish.	1. Matematika fani o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish. 2. Malaka oshirish kurslariga akademiklar va	2020-yil 1-iyul Doimiy	Xalq ta'limi vazirligi (<i>Shermatov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		oliy ta'lim muassasalarining matematika kafedrası professor-o'qituvchilarini jalb etish.		
5.	Matematika fanidan bilimlarni baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy etish.	1. Matematika fanidan bilimlarni baholash bo'yicha milliy sertifikatlashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar, sertifikat sohiblariga imtiyoz berishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish. 2. Qaror loyihasini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil 1-iyun 2020-yil 1-iyul	Davlat test markazi (Karimov), Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Matematika instituti (Ayupov)
6.	Maktab o'quvchilari orasida Al-Xorazmiy nomidagi respublika va hududiy olimpiadalarni o'tkazish.	1. Al-Xorazmiy nomidagi respublika va hududiy fan olimpiadalarni o'tkazish tartibini tasdiqlash hamda respublika komissiyasi va ishchi guruhlarni tuzish. 2. Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda olimpiada topshiriqlarini tayyorlash va olimpiadani ochiq va x'lis tarzda o'tkazish.	2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Matematika instituti (Ayupov)
7.	Matematika fani o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, oddiy va tushunarli yozilgan ommabop darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr etish.	1. Matematika fanining o'quv dasturlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish. 2. Matematika fani bo'yicha yangi va tushunarli tilda yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etish rejasini tasdiqlash.	2020-yil 1-avgust 2020-yil 15-avgust	Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Matematika instituti (Ayupov)
8.	Ixtisoslashtirilgan maktablarda "Bir	1. Ixtisoslashtirilgan maktablarni yuqori	2020-yil 1-sentabr	Axborot texnologiyalari va

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	million dasturchi” loyihasi doirasida dasturlash tillariga o’qitishni tashkil qilish hamda o’quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o’quvchilarga Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining IT-akademiyasida tahsil olishlari uchun yo’llanma berish.	tezlikdagi internetga ulash. 2. Ixtisoslashtirilgan maktablarning 7 — 11 sinflari o’quvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida dasturlash tillariga o’qitishni tashkil qilish. 3. O’quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o’quvchilarga dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining IT-akademiyasida tahsil olishlari uchun maxsus chegirmalar asosida yo’llanma berish tizimini yaratish.	2020/2021 o’quv yilidan boshlab 2021-yil 1-yanvar	kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sodiqov), Xalq ta’limi vazirligi (Shermatov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)
9.	Xalq ta’limi vazirligi huzurida “Ustozlar kengashi”ni tashkil etish.	1. Xalq ta’limi vazirligi huzurida “Ustozlar kengashi”ning tarkibini shakllantirish va nizomini ishlab chiqish. 2. Xalq ta’limi vazirligi huzurida “Ustozlar kengashi”ni tashkil etish.	2020-yil 1-sentabr 2020-yil 1-oktabr	Xalq ta’limi vazirligi (Shermatov)
10.	Oliy ta’lim muassasalari qoshidagi litsey (gimnaziya)lar faoliyatini qayta ko’rib chiqish.	1. Qoraqalpog’iston Respublikasi Amudaryo tumanida joylashgan Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi faoliyatini tugatgan akademik litsey negizida Nukus davlat pedagogika institutining matematikaga ixtisoslashtirilgan maktabini tashkil etish choralarini ko’rish. 2. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan gimnaziya faoliyatini qayta tiklash.	2020-yil 1-avgust	Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (Madjidov), Xalq ta’limi vazirligi (Shermatov), Suv xo’jaligi vazirligi (Xamrayev)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
III. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish				
Bunda, iqtisodiyotning real sektori va ishlab chiqarish sohasiga kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida matematika fanlarining soatlar hajmini ko'paytirish, yangi va ta'lim bozorida talabgor mutaxassisliklarni ochish hisobidan yoshlarni matematika ta'limi bilan qamrov darajasini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov shaxsan mas'ul hisoblanadi.				
3.1. Matematika yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlash va o'qitish sifatini oshirish				
11.	Yuqori malakali matematik kadrlarni grant asosida tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini oshirish.	1. Matematik kadrlarni grant asosida tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. 2. Matematika bo'yicha qabul parametrlarini oshirish choralarini ko'rish.	2020-yil 15-may 2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Qo'chqorov</i>)
12.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida "Aktuar va moliyaviy matematika" magistratura mutaxassisligini ochish.	1. "Aktuar va moliyaviy matematika" magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish. 2. Talabalarni kadrlar buyurtmachilari tashkilotlarida doimiy amaliyot o'tashlarini ta'minlash. 3. Bitiruvchilarning kadrlar buyurtmachi tashkilotlarida ishga joylashuvi yoki ilmiy-tadqiqotlarni davom etishlari uchun zarur choralar ko'rish. 4. Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari mazmunini Markaziy bank va Moliya vazirligi tavsiyalariga asosan shakllantirish.	2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Markaziy bank (<i>Nurmuratov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>)
13.	Respublika sanoat ishlab chiqarish korxonalarining texnik-texnologik masalalari yechimini matematik usullar va	1. Oliy ta'lim muassasalarida "Mexanika va matematik modelashtirish", "Matematik injiniring	2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	modellash tirish orqali hal etishga qodir bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash.	(ishlab chiqarish sohalari bo'yicha)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda "Moliyaviy matematika" magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etish. 2. Tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilariga "muhandis-matematik" va "matematika-mexanika o'qituvchisi" qo'sh (dual) kvalifikatsiyalarini berishni yo'lga qo'yish.		(Qo'chqorov), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
14.	Matematik ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash.	1. Matematika bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarining muayyan aniq sohalarda amaliy masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim dasturlarini fanlar (yo'nalishlar)aro integrativ prinsip asosida ixtisoslashtirilgan tartibda ishlab chiqish va joriy etish. 2. "Matematik iqtisodiyot", "Matematik biologiya", "Matematik fizika" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	2020-yil 1-iyul 2021/2022 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Iqtisodiy ta'lim va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (Qo'chqorov), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
15.	Matematika sohasi bo'yicha iqtidorli talabalarning bo'sh vaqtlari mazmunli hamda samarali o'tkazilishini tizimli yo'lga qo'yish.	1. O'zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpog', Buxoro, Namangan, Samarqand va Urganch davlat universitetlarida matematika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni aniqlash. 2. Matematika sohasi bo'yicha iqtidorli talabalar uchun xorijiy va respublika oliy ta'lim	2020-yil iyun 2021-yildan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Matematika instituti (Ayupov), O'zbekiston Matematika jamiyati (A'zamov)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		muassasalari talabalarini jalb etgan holda yozgi maktablarni tashkil etish va doimiy ravishda o'tkazib borish.		
16.	Matematika fani o'quv-metodik dasturi mazmun va mohiyatini sohalarga moslashtirish.	Muhandis-texnika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida oliy matematika kursining o'quv yuklama hajmlarini, o'quv dasturi mazmunini sohalarning amaliy vazifalariga muvofiqlashtirib ishlab chiqish va joriy etish.	2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), O'zbekiston Matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>)
17.	"Maktabgacha ta'lim" va "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari matematika fani dasturining bugungi kun talablari asosida qayta ishlab chiqish.	1. "Maktabgacha ta'lim" va "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari matematika fani dasturlarini xorijiy ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish. 2. "Maktabgacha ta'lim" va "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari matematika fani dasturida asosiy e'tiborni mantiqiy fikrlash va o'yinlar ko'rinishidagi masalalarni yechishga qaratgan holda soddalashtirish.	2020-yil 1iyul 2020-yil 1-avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), O'zbekiston Matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
18.	Oliy matematika fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlar hajmini oshirish.	1. Oliy ta'lim muassasalarida tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan o'quv rejalarida "Oliy matematika" fanini to'liq o'zlashtirish uchun yangi "Sonlar nazariyasi", "Matematik modellash", "Graflar nazariyasi" qismlarini kiritish. 2. 2020/2021 o'quv yilidan "Oliy	2020-yil iyu❖ 2020-2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		matematika" fani bo'yicha o'qish muddatini fandagi mavjud ayrim qismlar soatini ko'paytirish hisobidan 2 semestrda 4 semestrgacha oshirish.		
19.	Matematika fani bo'yicha o'quv adabiyotlari (darsliklar)ni turli dasturlar va umumiy metodologik asosda hamda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida tushuntiruvchi real misollar, grafik materiallar asosida tayyorlash.	1. Muhandis-texnika, tabiiy fanlar, gumanitar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun matematika fanidan alohida universal darslik yaratishga tanlov va turli grantlar e'lon qilish. 2. Gumanitar bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan matematika fani dasturlarini qayta ko'rib chiqish va soddalashtirish. 3. Matematika fani bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari asosidagi animatsiyalar, grafik materiallar asosida o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr etish.	2020-yil 1-iyul 2020-yil iyul-avgust 2021-yil 1-iyun	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
20.	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining matematik fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini iqtisodiyotning real sohasidagi texnologiyalarda, shuningdek, amaliy hamda ilmiy faoliyatda qo'llay olishini ta'minlash.	1. Mutaxassislikka bevosita aloqasi bo'lmagan fanlarni qisqartirish. 2. Qisqartirilgan fanlar hisobidan muhandis-texnika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida yangi "Kompyuterli matematik tizimlar" fanini kiritish.	2020-yil iyun-iyul 2020-2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
21.	Respublika oliy ta'lim muassasalarini matematika sohasi bo'yicha professor-	2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga	2020-yil iyun	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Qo'chqorov</i>),

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	o'qituvchilar bilan ta'minlash.	matematika mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini to'liq davlat granti asosida tasdiqlash.		Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), kadrlar iste'molchisi bo'lgan tarmoq vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari
22.	Matematika sohasida stajirovka tizimini yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribalari asosida tashkil etish.	1. Yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribalarini o'rganish. 2. O'zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq, Buxoro, Namangan, Samarqand va Urganch davlat universitetlarida respublika oliy ta'lim muassasalari matematika o'qituvchilarining stajirovkalarini tashkil etish.	2020-yil 1-avgust 2021-yildan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), "El-yurt umidi" jamg'armasi (<i>Bekmurodov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
23.	Matematika fani o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasi, dars berish mahorati va metodikasini bilish darajasini muntazam oshirib borish.	1. Matematika o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini quyidagilarni nazarda tutgan holda takomillashtirish: mustaqil ishlashga o'rgatish metodikasini kiritish; multimedia va axborot texnologiyalarini dars mashg'ulotlarida faol qo'llashni o'rgatish, amaliy mashg'ulotlar salmog'ini oshirish. 2. O'quvchilarga maktab dasturi mavzularini mustaqil o'rganishlari uchun elektron resurslar va dasturiy platformalar ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish sharoitlar yaratish.	2020-yil may — iyul 2020-yil iyun oyidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), O'zbekiston matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
24.	Talabalarda tizimli tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.	Talabalarda tizimli tahlilni o'z sohasi va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini	2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		shakllantirish maqsadida tegishli fanlarning o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish.		
25.	Kasb-hunar maktablarida matematika fani dasturini ishchi kasblarning xususiyatlarini hisobga olgan ishlab chiqish.	1. Matematika fanining umumiy o'rta ta'lim tizimi bilan uzviyligini ta'minlash va kasbga yo'naltirib o'qitishni tashkil etish bo'yicha kasb-hunar maktablari uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish. 2. Matematika fani o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish va o'quvchilarning o'zlashtirishini monitoring qilish.	2020-yil 1-avgust Doimiy	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Xalq ta'limi vazirligi (<i>Shermatov</i>)
3.2. Matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish				
26.	Oliy ta'lim tizimida matematika ta'limi va fani (fundamental, amaliy va innovatsion) rivojlanishini tanqidiy tahlil qilish.	1. Oliy ta'lim tizimida matematika ta'limi va fani rivojlanishi holatini o'rganish va tahliliy materiallar tayyorlash. 2. Tahliliy materiallar asosida 2020 — 2023-yillarda oliy ta'lim tizimida matematika fanini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. "Yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va tizimli amalga oshirish.	2020-yil 1-iyun 2020-yil 1-avgust 2020 — 2023-yillar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), O'zbekiston Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), O'zbekiston matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
27.	Oliy ta'lim muassasalarida matematika ilmiy maktablarini shakllantirish va matematika kadrlarining ilmiy salohiyatini oshirish.	1. Matematika fanini o'qitishda dunyoda yuz berayotgan yangiliklar asosida fan dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi hamda mavjud muammolarga tez va to'g'ri yechim topishga yordam beruvchi	2020-yil 20-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), O'zbekiston Matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), tizimida oliy ta'lim

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		ilmiy maktablarni shakllantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish. 2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekiston va xorijda faoliyat olib borayotgan olimlardan iborat Matematiklar kengashini tashkil etish.	2020-yil 1-dekabr	muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
28.	Matematika sohasidagi ilmiy natijalar xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidagi ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, xalqaro matematiklar ilmiy hamjamiyatiga yetkazilishi va ular tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash.	1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ta'lim va fan sohasidagi ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, natijalar xalqaro darajada e'tirof etilishiga erishish uchun sharoitlarni kengaytirish maqsadida dunyo universitetlari reytingini belgilovchi Times Higher Education (THE), Quacquarelli Symonds (QS), Academic Ranking of World Universities (ARWU) Shanxay reyting agentliklari hamda yirik ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan Elsevier kompaniyasi bilan hamkorlikni rivojlantirish va ular bilan tuziladigan har birining miqdori 300 ming AQSh dollaridan oshmaydigan shartnomalarni istisno tariqasida davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida e'lon joylashtirmasdan va elektron savdolarsiz, tendersiz, to'g'ridan to'g'ri rasmiylashtirish va to'lovlarni vazirlikning Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan	2020-yil 1-avgust 2020-yil sentyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), "El-yurt umidi" jamg'armasi (<i>Bekmurodov</i>), tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		amalga oshirish huquqini berish. 2. Yoshlarni doktorantura va magistraturada tahsil olishlari imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi matematika sohasida alohida tanlovlarni tashkil qilish.		
29.	Matematika bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilingan talabalarning ilmiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish, ularning ilmiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirish.	1. Oliy ta'lim muassasalarining matematika bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari o'rtasida o'tkaziladigan matematika bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari magistraturada matematika mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga davlat granti asosida qabul qilish. 2. O'zbekiston Milliy Universiteti, Buxoro va Samarqand davlat universitetlarida umumta'lim maktablari bitiruvchi sinflari o'quvchilari o'rtasida ko'p bosqichli (tuman — viloyat (shahar) — oliy ta'lim muassasasi) matematika fani bo'yicha olimpiada o'tkazish va 1 — 3 o'rinlarni egallagan o'quvchilarni mazkur oliy ta'lim muassasalarining mablag'lari hisobidan o'qishga qabul qilish. 3. Matematika fani bo'yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarga bir marotaba oylik maoshining 100 foizi	2020-yil sentyabr 2021/2022 o'quv yilidan boshlab 2020/2021 o'quv yilidan boshlab	Moliya vazirligi (Ishmetov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (Sodiqov)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		miqdorida, matematika fani bo'yicha talabalar uchun to'garaklar olib borayotgan professor-o'qituvchilarga o'quv yili davomida oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan oylik maoshlariga 25 foizi miqdorida ustama haq to'lab berilishini ta'minlash.		
30.	Matematika fanini raqamli texnologiyalar asosida yoshlar o'rtasida ommalashtirish.	Yoshlar o'rtasida matematika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning matematika sohasidagi iqtidorini rivojlantirish va metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida Internet tarmog'ida "Yosh matematiklar portalini"ni tashkil qilish va uning doimiy faoliyatini ta'minlash.	2020-yil 15-sentabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (Sodiqov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov)
IV. Matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish				
Bunda, fizik-matematika yo'nalishidagi ilmiy tashkilotlarda matematika ixtisosliklari bo'yicha ilmiy kadrlarni tayyorlash, stajor-tadqiqotchilik institutining samaradorligini ta'minlash va matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliy muammolar bilan bog'liqligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S. Yuldashev shaxsan mas'ul hisoblanadi.				
31.	Matematika sohasidagi olimlar va yosh tadqiqotchilarni xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy tadbirlardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash.	1. Olimlar va yosh tadqiqotchilarning xorijda o'tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy tadbirlarda qatnashish xarajatlarini moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Matematika fani va ta'limini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'lari hisobidan	2020-yil 1-iyun 2020-yil 1-iyul 2020-yil 15-iyul	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Markaziy bank (Nurmuratov) va tijorat banklari

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlar moliyalashtiriladigan xalqaro ilmiy-amaliy tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash. 3. Tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq tadbirlarda ishtirok etish istagida bo'lgan tadqiqotchilarni jalb qilish uchun e'lon qilish. 4. Jamg'armaning yillik xarajatlar smetasiga muvofiq moliyalashtirishni amalga oshirish.	Smetaga muvofiq	
32.	Matematika institutining ilmiy va hisoblash asbob-uskunalarini xarid qilish dasturlarini amalga oshirish.	1. Ilmiy va hisoblash asbob-uskunalarini xarid qilish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish. 2. Takliflarni Jamg'arma Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritish. 3. Xaridlarni amalga oshirish.	Har yili noyabr oyida Har yili dekabr oyida Grafik asosida	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Markaziy bank (<i>Nurmuratov</i>)
33.	Yirik ilmiy maktablar faoliyatini kengaytirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash.	1. Hududlarda Matematika instituti bo'linmalarini tashkil qilish. 2. Tashkil etiladigan har bir bo'linmaga matematika sohasidagi ilmiy maktab rahbari bo'lgan akademikni biriktirish.	2021-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>)
34.	Prezident maktablarida akademiklar ma'ruzalarini muntazam ravishda tashkil qilish.	1. Matematika, fizika va texnika sohasidagi akademik va olimlarni Prezident maktablariga biriktirish. 2. Ma'ruzalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2020-yil 1-avgust 2020-yil 1-sentabr Grafik asosida	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi (<i>Boboxo jayev</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Ma'ruzalarni o'tkazish.		
35.	Matematika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish.	1. Iqtisodiyot tarmoqlarining matematik yechimni talab etadigan muammolar va jarayonlarini modellashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish va ularni shakllantirish. 2. Muayyan muammo yechimiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini ishlab chiqish. 3. Amaliy natijaga yo'naltirilgan ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish.	2020-yil 1-iyul 2020-yil 1-oktabr 2020-yil 1-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
36.	Ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash tartibini joriy qilish.	1. Mavjud ilmiy tadqiqot muassasalari ro'yxatini shakllantirish. 2. Ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari va metodikasini ishlab chiqish. 3. Baholash metodikasi asosida Hukumatning tegishli qarori loyihasini ishlab chiqish. 4. Ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va reytingini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil 1-iyun 2020-yil 1-avgust 2020-yil 1-oktabr 2020-yil 1-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shodmonov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
37.	Olimlarning "Noyabr o'qishlari" akademik seminarlarini tashkil qilish.	1. Yil davomida yuqori natijalarga erishgan olimlar ruyxatini shakllantirish va ushbu ro'yxatni akademiklik	Har yili noyabr oyida	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		uchun nomzodlar zaxirasi sifatida Fanlar akademiyasi Prezidiumida tasdiqlash. 2. Nukus, Urganch, Samarqand, Navoiy, Farg'ona shaharlarida ma'ruzalar va natijalarni muhokama qilish.		
V. Matematika sohasida ta'lim olayotgan va ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash				
Bunda, matematika sohasidagi ilmiy faoliyatni va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini amaliyotga joriy etish uchun O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abdurahmonov shaxsan mas'ul hisoblanadi.				
38.	Matematika sohasida faoliyat yurituvchi yosh olimlar uchun ilmiy loyihalarni kengaytirish.	1. Iqtisodiyot tarmoqlarining matematik yechimni talab etadigan muammolar va jarayonlarini modellash tirish bo'yicha ehtiyojlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarining mavzularini ishlab chiqish. 2. Amaliy natijaga yo'naltirilgan ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish.	2020-yil 1-iyul 2020-yil 1-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov)
39.	Matematika ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar va tadqiqotchilar uchun Akademik T.A. Sarimsoqov nomidagi stipendiyani joriy etish.	1. Jamg'arma tomonidan stipendiyani belgilash tartibini ishlab chiqish va tanlov komissiyasi tarkibini Jamg'arma Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlash. 2. Tanlovni o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash.	2020-yil 20-may Belgilangan muddatlarda	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov)
40.	Iqtidorli yoshlarni Yoshlar akademiyasi faoliyatiga jalb etish.	1. Iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlardan tashkil topgan jamoalarni saralash bo'yicha tanlov e'lon qilish va o'tkazish.	2020-yil 1-avgust Doimiy	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yangilab borish.		
41.	Talabalarning matematika fani bo'yicha xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini rag'batlantirish.	1. Talabalar⁴ing xalqaro olimpiadalarda qatnashish xarajatlarini moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish va Jamg'arma Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlash. 2. Jamg'arma mablag'lari tomonidan ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar moliyalashtiriladigan xalqaro olimpiadalar ro'yxatini tasdiqlash. 3. Tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq xalqaro olimpiadalarda qatnashmoqchi bo'lganlarning buyurtmalarini qabul qilish. 4. Jamg'armaning yillik xarajatlar smetasiga muvofiq moliyalashtirishni amalga oshirish.	2020-yil 1-iyun 2020-yil 1-iyul Olimpiada o'tkazilishidan ikki oy avval Smetaga muvofiq	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Markaziy bank (Nurmuratov)
42.	Yuqori malakali kadrlarga bo'lgan amaldagi va kelgusidagi talab asosida matematika bo'yicha doktoranturaga qabul qilish parametrlarini shakllantirish tizimi bo'yicha takliflar tayyorlash.	1. Doktoranturaga qabul qilish parametrlarini shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish. 2. Doktoranturaga qabul kvotalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish. 3. Metodikani joriy qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.	2020-yil 1-noyabr 2020-yil 15-dekabr 2021-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abdurahmonov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Matematika instituti (Ayupov)
VI. Matematika sohasida ta'lim va ilm-fan masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, matematika fani bo'yicha erishgan yutuqlarimiz haqida dunyo hamjamiyatida keng targ'ib qilish				

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
Bunda, chet eldagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abdurahmonov shaxsan mas'ul hisoblanadi.				
43.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti darajasini (keyingi o'rinlarda — Mukofot) jahondagi matematika sohasidagi nufuzli mukofotlar darajasigacha ko'tarish.	1. Mukofot bilan taqdirlash tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 2. Mukofot ta'sis etilganligi haqida Xalqaro matematiklar jamiyatini xabardor qilish va uni targ'ib etish bo'yicha hamkorlikdagi amaliy ishlarni kelishish. 3. Mukofot bo'yicha talabgorlarni aniqlash va taqdirlash. 4. Mukofotning ilk sovrindorlari bo'yicha Xalqaro matematiklar jamiyati va xalqaro miqyosdagi keng jamoatchilikni xabardor qilish	2020-yil avgust 2020-yil yakuniga qadar Belgilangan muddatlarda	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), O'zbekiston matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>)
44.	O'zbekiston matematika jamiyatining xalqaro aloqalarini kengaytirish va Xalqaro matematiklar jamiyatiga to'laonli a'zo bo'lishini ta'minlash.	1. O'zbekiston matematika jamiyatining Xalqaro matematiklar jamiyati yig'ilishlarida doimiy va faol ishtirok etish. 2. O'zbekiston matematika jamiyatining Xalqaro matematiklar jamiyatiga to'laonli a'zo bo'lishini ta'minlash. 3. O'zbekiston matematika jamiyatini Xalqaro matematiklar jamiyatiga to'laonli a'zo bo'lish bilan bog'liq a'zolik badallarini Jamg'arma mablag'lari hisobidan to'lash.	Belgilangan muddatlarda 2023-yilgacha A'zolikka qabul qilingandan so'ng bir oy muddatda	O'zbekiston matematika jamiyati (<i>A'zamov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>)
45.	Umumta'lim maktablari, shu jumladan Ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarini	1. Matematika fani bo'yicha mahalliy fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish.	Har o'quv yilida	Xalq ta'limi vazirligi (<i>Shermatov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	matematika bo'yicha xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini ta'minlash.	2. Yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlash uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish. 3. Mahalliy olimpiadalarda g'olib bo'lgan hamda matematikaga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash hamda ishtirokini ta'minlash. 4. Xalqaro olimpiadalar g'oliblari va ularning o'qituvchilarini o'rnatilgan tartibda bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlash. 5. Matematika fani bo'yicha respublika olimpiadasi g'oliblariga davlat oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli kirish huquqini taqdim etuvchi sertifikat berish.		
46.	Qoraqalpog'iston Respublikasida matematika fani bo'yicha Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadanio'tkazish.	1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Xalqaro olimpiadani o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tayyorlash va tasdiqlash uchun Vazirlar mahkamasiga kiritish. 2. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiada haqidagi to'liq ma'lumotlarni aks ettiruvchi veb-sayt yaratish. 3. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadani yuqori saviyada o'tkazish.	2020-yil dekabr Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Ne'matov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), matematika instituti (<i>Ayupov</i>), O'zA (<i>Kuchimov</i>), MTRK (<i>Xodjayev</i>), Matbuot va axborot agentligi (<i>Saidjanov</i>)

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		4. Olimpiada tadbirlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish.		
47.	Talabalar va o'quvchilar o'rtasida "Algoritmash va dasturlash" olimpiadasini o'tkazish va uni tashkil qilish uchun elektron platforma ishlab chiqish.	1. Olimpiadani o'tkazish bo'yicha elektron platformani ishlab chiqish. 2. "Algoritmash va dasturlash" olimpiadasini o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilash. 3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablarining bitiruvchilari orasidan olimpiadaga qatnashuvchilar ro'yxatlarini shakllantirish va o'tkazish.	2020yil 15-iyul 2020-yil 1-oktabr 2020-yil 1-noyabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sodiqov</i>), Matematika instituti (<i>Ayupov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>), Xalq ta'limi vazirligi (<i>Shermatov</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)

Izoh:

Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi yig'ilishlarida ushbu maqsadli dastur bajarilishi tizimli ko'rib boriladi, mas'ul rahbarlarning hisobotlari eshitaladi va tegishli choralar ko'riladi.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida hududiy bo'linmalarining

NAMUNAVIY SHTATLAR JADVALI

T/r	Lavozimlar nomi	Shtatlar soni
1.	Bo'linma mudiri	1
2.	Bosh ilmiy xodim	1
3.	Yetakchi ilmiy xodim	2
4.	Katta ilmiy xodim	3
5.	Kichik ilmiy xodim	2
6.	O'quv markazi rahbari	1

Izoh:

Hududiy bo‘linmalar quyidagi oliy ta’lim muassasalari bino va inshootlarida tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi bo‘linmasi — Qoraqalpog‘iston davlat universiteti;

Buxoro viloyatidagi bo‘linmasi — Buxoro davlat universiteti;

Namangan viloyatidagi bo‘linmasi — Namangan davlat universiteti;

Samarqand viloyatidagi bo‘linmasi — Samarqand davlat universiteti;

Xorazm viloyatidagi bo‘linmasi — Urganch davlat universiteti.

O‘quv markazi rahbari shtat birliklari 2021-yilda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan saqlanadi va 2022-yildan boshlab to‘liq xo‘jalik hisobiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qaroriga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son qaroriga kiritilayotgan

O‘ZGARTIRISH

5-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining

TUZULMASI



Xodimlarning umumiy cheklangan soni: 109 nafar, shu jumladan:

ma'muriy-boshqaruv xodimlari (MBX) — 12 nafar;

ilmiy xodimlar — 95 nafar;

muhandis-texnik xodimlar — 2 nafar.

* Mazkur xodimlar soni 2021-yil 1-yanvargacha O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan, keyinchalik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Punktir chiziqlar bilan budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan tarkibiy bo'linmalar ko'rsatilgan.

Yordamchi xodimlar soni qonunchilikda o'rnatilgan normativlar bo'yicha belgilanadi".

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2020-y., 07/20/4708/0553-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son; 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)